

Dilmurod UMURZOQOV,
NavDPI Pedagogika va psixologiya kafedarsi p.f.f.d (PhD)
E-mail: umurzoqovdilmurod@gmail.com
Tel:(93)929-77-70

NavDPI dotsenti, p.f.n. X.X.Bobomirzayev taqrizi asosida

ETHNIC RELATIONSHIP IS CONSIDERED AN IMPORTANT FACTOR OF PROVIDING THE RESTORATION OF NATIONALITIES

Annotation

The article explains that interethnic relations are one of the important issues that effectively influence the political and economic development of society. The concepts of “nation”, “ethnicity”, “nationalism” and “interethnic conflicts”, as well as the problem of interethnic relations are analyzed theoretically and methodologically.

Key words: Nation, ethnicity, nationalism, interethnic relations, tolerance, national harmony.

ЭТНИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ СЧИТАЮТСЯ ВАЖНЫМ ФАКТОРОМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВОССТАНОВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье поясняется, что межэтнические отношения являются одним из важных вопросов, эффективно влияющих на политическое и экономическое развитие общества. Теоретико-методологически анализируются понятия «нация», «этнос», «национализм» и «межэтнические конфликты», а также проблема межэтнических отношений.

Ключевые слова: Нация, этнос, национализм, межэтнические отношения, толерантность, национальное согласие.

ETNIK O'ZARO MUNOSABATLAR MILLATLARARO BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada millatlararo munosabatlar jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi muhim masalalardan biri ekanligi yoritib berilgan. «Millat», «etnos», «millatchilik» va «millatlararo nizolar» tushunchalari hamda millatlararo munosabatlar masalasi nazariy-uslubiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Millat, etnos, millatchilik, millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, milliy totuvlik.

Kirish. Har bir davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatining samaradorligi, birinchi navbatda, mamlakat ichki barqarorligi masalalari bilan bevosita bog'liq. Bu boradagi eng muhim masalalardan biri – bu millatlararo munosabatlar sanalib, mazkur masala har bir davlat milliy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning tahlili davlatlar tomonidan o'z xavfsizligini ta'minlash, ya'ni uning tashqi va ichki muvozanatini saqlash masalasi strategik vazifaga aylanganligidan dalolat bermoqda[17].

Millatlararo munosabatda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchligi va barqarorligini izdan chiqarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'p millatli davlatdagi etnoslararo hamda millatlararo munosabatlar milliy xavfsizlik degan tushunchaning shakllanishida asos bo'ladigan ta'sirchan omillardan biridir. Shu bois shurolardan keyingi makonda yangi mustaqil davlatlar shakllanishida etnoslararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishning dolzarbligi ahamiyati yanada ortadi. Nazokat va ehtiyotkorlik bilan yondashib hal etish lozim bo'lgan bu masala ko'p millatli davlatlar sirasiga kiruvchi yurtimiz uchun alohida dolzarbdir.

Shuningdek, milliy-etnik munosabatlarni uyg'unlashtirib borish fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirda jamiyatda milliy birlikni va millatchilikni butunlay barham toptirib, insonlarning millatparvarlik hamda vatanparvarlik kayfiyatini shakllantirib borishni taqozo etadi. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy-etnik nizolarni oldini olish va unga shart-sharoit yaratayotgan sabablarning o'z vaqtida bartaraf etilmasligi, milliy-etnik konfliktlarning avj olishiga, bu esa o'z navbatida chegara hududlarida yashovchi turli etnoslarning hayotiga xavf solishi hamda mintaqada beqaror vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin.

Insoniyat paydo bo'lganidan beri kishilar, millatlar va elatlar o'rtasida mudom u yoki bu ko'rinishda to'qnashuvlar, nizolar, urushlar va qirg'inlar sodir bo'lib kelgan[2]. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 2 mingdan ortiq etnoslar mavjud bo'lsa, globallashuv sharoitida etnoslarning kupayishi va oz sonli xalqlarning kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda[3].

Ma'lumki, hozirgi kunda dunyoda demografik jarayonlarning birlamchi va asosiy o'ziga xosligi - aholining tez sur'atlar bilan o'sib borishidir. Agar XX asrning birinchi yarmi mobaynida yer yuzi aholisining umumiy soni 1,5 mlrd.dan 2,5 mlrd.gacha ko'paygan bo'lsa, keyingi o'n yilliklarda aholi nufuzi 3,5 mlrd.ga yoki 2,4 martaga ortdi. 1999 yil aholi soni 6 mlrd.ga yetdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilga kelib yer yuzi aholisi 8 mlrd. 524 mln. 100 yildan so'ng esa 11 mlrd.dan ortishi mumkinligi ekspertlar tomonidan bashorat qilinmoqda[15].

Ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yagona millat istiqomat qiladigan davlat bugungi kunda dunyo mamlakatlarining juda kam qismini tashkil etadi. Aniqroq keltirib o'tish joiz bo'lsa, dunyo bo'yicha 12 ta (umumiy davlatlarning 9 foizi) mamlakatda bir millatga mansub xalqlar turmush kechiradi. Shuningdek, 31 ta mamlakatda umumiy aholining 50 foizdan 70 foizigacha bir millatga xos bo'lib, titul millatga mansub fuqarolar bo'lsa, dunyoning 39 ta mamlakatida esa, aholining teng yarmi boshqa millatga mansub fuqarolardir[10].

Shu jihatdan, «millat», «etnos», «millatchilik» va «millatlararo nizolar» tushunchalarining nazariy-uslubiy jihatdan tahlil qilib o'tsak quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, «millat», tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, ma'no jihatidan juda boy mazmun va mohiyatga ega. Shu sababli millatlararo munosabatlar va jamiyatda milliy-etnik hayotning rivojlanish shart-sharoitlarini tadqiq qilish millatlararo totuvlikni va uyg'unlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. «Millat» atamasi qadimda va oʻrta asrlarda asosan kelib chiqishi bir boʻlgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan maʼlum bir guruh kishilarga nisbatan ishlatilgan. Yangi davrda, ayniqsa, XVIII asr intihosidagi Buyuk Fransuz inqilobidan keyin fransuz, ingliz va Gʻarbiy Yevropa xalqlari tillarida millat atamasi maʼlum bir davlat fuqarolariga nisbatan, yaʼni, etnik maʼnoda qoʻllanila boshlagan. Markaziy va Sharqiy Yevropada milliy davlatchilik taraqqiyoti bir oz kechroq boshlanganligi sababli «millat» iborasi bir hududda yashagan hamda til-madaniy munosabatlari umumiylik ega boʻlgan, yaʼni, etnik maʼnoda qoʻllanila boshlangan.

Millatning yangi ilmiy konsepsiyasi muallifi fransuz olimi E.Renan hisoblanadi. Mazkur olim tomonidan 1882 yilda yozilgan «Millat nima?» nomli ilmiy risolasida ushbu mavzuga oid dastlabki ilmiy qarashlar bayon qilingan. Uning taʼkidlashicha, millatning belgilaridan biri insonlarning qiziqish, maqsad va manfaatlarining umumiyligidir. Umumiylik esa qiziqishlar birligidan kelib chiqadi, shuningdek, hayotning umumiy shart-sharoitlari, tarixining umumiyliigi, millatning vujudga kelishi va rivojlanishi katta ahamiyat kasb etgan omillardan hisoblanadi. Olimning fikricha millat abadiy mavjud boʻlmaydi. Ularning ibtidosi ham nihoyasi ham mavjud»[16].

E.Renan ilk bora 1877 yilda etatik (davlatga doir) va etnik talqinlarni umumlashtirishga hamda millat iborasining dastlab qoʻllanilishini oʻrta asrlarda Yevropada milliy davlatchilikning paydo boʻlish jarayoni bilan bogʻliq, deb talqin qilgan. Millat, uning fikricha, avvalo, maʼlum bir guruh kishilarining birgalikda yashashi, ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan anʼanalarni saqlab qolishga boʻlgan harakati hamda umumiy maqsad yoʻlida birlashishidir. E.Renandan soʻng ijtimoiy fanlar tizimida «millat» atamasi bilan bogʻliq qator nazariy-metodologik qarashlar bayon qilingan boʻlsada, ularning birortasi ham mukammal nazariya sifatida shakllanmagan va umum xalq tomonidan eʼtirof etilmagan.

Yevropalik olimlar, faylasuflar hamda tadqiqotchilar E.Renandan ilgari ham millat va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni haqidagi muammoga yechim qidirganlar. Lekin shuni qayd etish joizki, XVIII asrdagi millat tushunchasi hozirgi davrdagi millat tushunchasidan ancha farq qilgan. Oʻsha davrlardagi qarashlarga koʻra, millat atamasi faqatgina hukumron tabaqa vakillari hamda jamiyat ziyolilariga nisbatan qoʻllangan boʻlib, ular albatta davlat boshqaruvida ishtirok etishlari lozim boʻlgan. Bu atama XIX asrning 60-yillarida etnos muammolari majmuasiga Gʻarbiy Yevropa etnologiyasida etnosning hosilasi sifatida inglizcha «ethnicity» soʻzi orqali paydo boʻldi. Gʻarbiy Yevropa etnologlari tasavvuriga koʻra, bu tushuncha asosida, birinchi navbatda, polietnik xarakterdagi etnos muammolari yoki mintaqaviy etnoslararo munosabatlardagi ziddiyatli holatlarni oʻrganish koʻzda tutiladi[9].

Shu bilan birga, bu haqda faylasuflar I.Kant va G.Gegel tomonidan ham juda aniq izohlab berilgan, yaʼni, u millat va etnos atamalarini oʻzaro bogʻlab qaragan[11]. Natijada «xalq» atamasi orqali koʻpchilik odamlarning maʼlum bir hududda jamlangan, ular birgalikda bitta yaxlitlikni, milliylikni tashkil etgan. Shuningdek, milliylik elementlarining oʻziga xos xususiyatlaridan biri sifatida bu inson ongining shakllanish va idrok etish jarayoni bilan bogʻliqligi deb taʼkidlashgan[8]. Bu borada rus tadqiqotchisi V. Tishkovning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir. Uning fikricha, millat tasavvurdagi tuzilma boʻlib, jamoaviy harakatlarga asos boʻladi va qatʼiy voqelikka ayatlanadi[23].

Millat tarixan tashkil topgan etnik birlik boʻlib, yagona til, yagona hudud, iqtisodiy hayot birligi, madaniyat hamda psixologik birlik va milliy oʻzlikni anglashning barqarorligiga asoslanadi[21].

Oʻzbekistonlik olimlarning fikriga koʻra, «millat» bu - til, maʼnaviyat, milliy oʻzlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, anʼanalar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bogʻlangan mustaqil subyekt sifatida oʻziga xos moddiy va maʼnaviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi. Millat maʼlum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning maʼnaviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi[12].

Shuningdek, har bir inson maʼlum bir millatning namoyandasi hisoblanib, uning oʻziga xos his-tuygʻulari, qadriyatlari, stereotiplari, orzu umidlari mavjuddir. Aynan ana shularni inobatga olib, milliy-etnik guruhlar - umumiy ichki va tashqi psixologik xususiyatlariga koʻra, bir-biri bilan bogʻliq[20] boʻlgan minglab, millionlab kishilardan iborat boʻlishi mumkin boʻlgan guruhdir. Agarda oddiylikdan murakkablik tomon boradigan boʻlsak, bu urugʻ va qabila, xalq va millat, irq va elatdir[4].

Ammo xalq millat darajasiga koʻtarilganda, unga qoʻyilgan talablar koʻlami, ichki mazmuni va mohiyati jihatidan jamiyat oldida masʼuliyati yuz karra, ming karra yuqoridir. Millat termini qadimda va oʻrta asrlarda asosan kelib chiqishi bir boʻlgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan kishilar guruhiga nisbatan ishlatiladi. Bunday qaraganda, millat tushunchasiga berilgan izoh etnos tasvifidan farq qilmaydi[5].

Tahlil va natijalar. «Millatchilik» - bir millatni har tomonlama ulugʻlab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishni anglatuvchi tushunchadir. Millatchilik milliy mahdudlik va mumtozlikni targʻib va tashviq qilishga asoslangan, oʻz millatiga chuqur ishonch va oʻzga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yoʻgʻrilgan nazariya va amaliyotdir. Millatchilik tushunchasiga yuqoridagi kabi tus berish keng tarqalgan boʻlsada, uning qamrov doirasini turlicha talqin qilish hollari mavjudligini taʼkidlash zarur. Masalan, sobiq ittifoq davrida millatchilik tushunchasi atayin soxtalashtirilgan va milliylikning har qanday koʻrinishi millatchilik sifatida baholangan edi. Hozirgi davrda ayrim tadqiqotlarda «millatparastlik», «millatparvarlik» va «millatchilik» tushunchalarini mazmunan farqlash toʻgʻrisida fikrlar bildirilmoqda[13].

Ingliz tarixchisi A.Toyinbi «Millatchilik – dunyodagi eng kuchli mafkuradir, agar milliy manfaatlar konflikti paydo boʻlsa, boshqa hech bir mafkura millatchilikka qarshi tura olmaydi», - deb yozgan. Shuningdek, millatchilik koʻp qirrali va turli xil kombinatsiyalarda va turlicha shakllarda, xususan, anʼanaviy, diniy, etnomadaniy konsepsiyalar (panislomizm, panamerikanizm va boshqalar) uchraydi[6].

Millatchilik mafkurasining mohiyatini oʻz millatining boshqa millatlardan ustunligini eʼtirof etish va targʻib qilish tashkil etadi. Millatchilik ekspansionizm, izolyatsionizm, shovinizm, natsizm koʻrinishlarida namoyon boʻlishi mumkin. Millatchilik bir mamlakat doirasida turli qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi, xalqaro miqyosda esa, turli mamlakatlar xalqlari oʻrtasiga nifoq soladi. Xalqaro qonunchilikka koʻra, millatchilik inson huquqlarini cheklash va siyosiy jinoyat sifatida baholalanadi[14].

Biroq, millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik oʻz millatini ajratib olib, unga «buyuk»lik maqomini berishga intilish boʻlsa, millatparvarlik boshqalarni kamsitmagan holda, oʻz millati ravnaqi uchun kurashish, bu yoʻlda, lozim boʻlsa, oʻz hayotini ham fido qilish demakdir. Chunki oʻz millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi. Albatta bugun millatchilikning ijobiy jihatlari deyarli jamiyat hayotida kuzatilmayotgan holdir. Uning salbiy jihatlari esa, jamiyat va davlat xavfsizligi uchun eng xavfli tahdidlar sarasiga koʻtarilib ulgurdi. Agarda «millatchilik» siyosiy tus olsa, kuchli salbiy yoʻnalish kasb etishi mumkinligini taʼkidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng koʻlamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin[1]. Qanday shaklda boʻlmasin, millatchilik ortida oʻzga xalqlar va ularning madaniyatlarini kamsitish, mensimaslik tuygʻulari yotadi. Bunday

qarashlar, aksariyat hollarda, millatning tarixiy rivojlanishi davomida ro'y bergan (ba'zan ro'y bermagan) adolatsizliklarda ham muayyan xalqlarni aybdor qilishga urinishlar bilan birga yuzaga chiqadi.

Shu o'rinda, «millatlararo nizolar» tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, millatlar o'rtasida paydo bo'ladigan nizolar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Albatta bugun ko'pgina fanlar, jumladan, «Psixologiya», «Konfliktologiya», «Sotsiologiya», «Politologiya» hamda xavfsizlik yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa fanlarning asosiy o'rganadigan obyektiga aylangan millatlararo nizolar omili jamiyat va davlat barqarorligini ta'minlashdagi eng dolzarb mavzular qatorida e'tirof etilmoqda.

Milliy-etnik konfliktlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash ularning yuzaga kelish mexanizmlarini tahlil etish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki shunday vaziyatlarning ichki va tashqi sabablarini farqlash, uning ta'sir etuvchi kichik elementlarini ham aniqlash, ularni bartaraf etishga jiddiy yondoshish imkonini berganligi tufayli ham muhim hisoblanadi[7]. Mazkur jarayonni o'rganishda Xaos nazariyasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Unda obyektga ya'ni, muammoga tizim sifatida qaraladi va uning kichik elementlariga o'zgartirish yoki ta'sir ko'rsatilishi keng kulamdagi oqibatlariga hamda uning fizik xususiyatlarini o'zgarishiga olib kelishi nazarda tutiladi. Mazkur nazariyadan qudratli davlatlar o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari yo'lida keng foydalanib kelgan (SSSR - 1990, MDH davlatlarida)[22].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, millatlararo munosabatlar, aloqalar hamda ziddiyat va nizolar bilan bog'liq masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, o'rganilgan ko'nikmalar asosida esa jamiyatni barqarorlashtirish masalalariga ilmiy, amaliy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan mas'uliyat mamlakat fuqarosiga borib taqalsada, fuqaro tinchlik va osoyishtalik eng oliy ne'mat ekanligini his etishi lozim bo'ladi.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan siyosat, avvalo, milliy totuvlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli millatlar o'rtasida do'stlik-qardoshlik munosabatlarini kengaytirish, millatlar totuvligi va ahilligini yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarini hurmat qilish, har bir millatning tili, urf-odatlarini va an'analarni muntazam ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda turli millatlar o'rtasida hamjihatlik barqaror rivojlanib kelganligi bois, bag'rikenglik ham noyob qadriyat sifatida mustahkamlanib bormoqda. Hozirda jahon miqosida millatlarning o'zligini anglash, o'z manfaatlarini himoya qilish, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish hamda ularni dunyo xalqlari o'rtasida ommalashtirishga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda. Bu jarayon qanchalik ijobiy bo'lmasin, o'z navbatida, turli millatlar va xalqlar o'rtasida o'zligini hamda manfaatlarini himoya qilishga bo'layotgan intilishlar tolerantlik (bag'rikenglik) tuyg'ularini tobora takomillashtirib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.74.
2. Азизова Н. Ўзбек тили - миллатлараро ва давлатлараро муомала воситаси // Жамият ва бошқарув. Т: 2010, №1. – Б. 117.
3. Анджелина Джоли Межэтнические конфликты: предпосылки и пути решения // http://www.coolreferat.com/Межэтнические_конфликты 20.07.2011г.
4. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (Ўқув қўлланма). – Т.: Университет, 2007. - Б. 92.
5. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (Ўқув қўлланма). – Т.: Университет, 2007. – Б.94.
6. Жумаев Р.З., Абдуллаев У.А., Хужанов Б.А. Конфликтология асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Академия, 2000. – Б. 152.
7. Жумаев Р.З., Абдуллаев У.А., Хужанов Б.А. Конфликтология асослари. Ўқув қўлланма – Т.: Академия, 2000. – Б.145.
8. Кант И. Антропология с прагматической точки зрения. – СПб.: Наука, 1999. – 471 с., // http://www.bimbad.ru/biblioteka/article_full.php?aid=424&binn_rubrik_pl_articles=108 11.12.2011г.
9. Крыско В.Г. Этническая психология. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – Б. 10-13
10. Кудрявцев В.Н. Юридическая конфликтология. – М.: РАН, 1995. // <http://www.kursach.com/biblio /0009001/000.htm> 16.01.2012г.
11. Макаров В.В. Место и значение национальной особенности в антропологическом учении немецкого идеализма // ftp://lib.herzen.spb.ru/text/makarov_5_10_320_324.pdf 05.10.2011г.
12. Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этниқ жараёнлар. – Т.: Фан, 2004. – Б.24.
13. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғат. – Т.: Ф.Фулум нашриёти, 2009. – Б.382.
14. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғат. – Т.: Ф.Фулум нашриёти, 2009. – Б. 382–383.
15. О Кыргызстане // <http://www.gdhotel.kg/ru/show/about-kyrgyzstan/> 12.02.2012г.
16. Ренан Э. Что такое нация? // Ренан Э. Собрание сочинений: В 12 т. Т. 6. Киев: Издание Б.К. Фукса, 1902. С. 98., // http://window.edu.ru/window/library/pdf2txt?p_id=45980&p_page=12 15.09.2011г.
17. Самаров Р.Р. Хавфсизликнинг методологик асослари. – Т.: Академия, 2010. – Б. 245.
18. Самаров Р. Сиёсий хавфсизлик асослари. – Т.: Академия, 2011. – Б. 31.
19. Самаров Р. Сиёсий хавфсизлик асослари. – Т.: Академия, 2011. – Б. 29.
20. Самаров Р. Сиёсий хавфсизлик асослари. – Т.: Академия, 2011. – Б. 96.
21. Смирнов А. “Национализм: нация коллективное действие: пустое означающее” // Логос. - Москва, 2009. №2. // <http://magazines.russ.ru/logos/2006/2/sm15.html>
22. Теория «хаоса» // <http://libsib.ru/menedzhment/tendentsii-razvitiya-menedzhmenta-osnovnie-etapi-nauchnie-shkoli-i-kontseptsii-upravleniya/teoriya-chaosa> 12.01.2012г.
23. Тишков В.А. Реквием по этносу: Исследования по социально-культурной антропологии. Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. — М.: Наука, 2003. — 544 с., // <http://www.ethnonet.ru/book/tishkov.html> 15.12.2011г.